Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik va bandlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash.....	950
Karshiyev Keldiyor Eshpulatovich	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish uchun ijtimoiy himoya va mehnat bozoriga kirishni kuchaytirish.....	954
Mamashokirova Iroda Samar qizi	
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitining o'zaro bog'liqligini nazariy asoslari.....	958
Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	
Региональный туристский кластер – как инструмент повышения эффективности экономики региона.....	965
Юсупова Нигина Тажиевна	
Bank tizimida esg omillarining samaradorligini oshirishda marketing tadqiqotlaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari.....	971
Xoliyov Murod Qahramon o'g'li	



Теоретические взгляды на цифровую экономику, цифровую трансформацию	977
Шарипова Шахло Истамовна	
Qoraqalpog'iston Respublikasining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari va strategik yo'nalishlari	982
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
Mintaqalar transport tizimini kompleks rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari	986
Rahmonov Rasul Ne'matovich	
Loyiha boshqaruvida amaliy misollar orqali jinoyat holatlarini tahlili	994
To'yqulov Abbosjon Ali o'g'li	
Advancing tourist safety management in Uzbekistan's growing tourism industry: a systems theory approach	999
Laylo Primova	
Qoraqalpog'iston Respublikasida maishiy xizmatlar sifatini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi muammolar	1006
Yerejepova Bibisara Abibullayevna	
Основные проблемы и вызовы в создании умных городов	1010
Хакбердиева Нозима Кахрамоновна	
Qurilish obyekti smeta narxlarini aniqlashdagi muammolar va ularning oqibatlarini	1015
Asadova Maftuna Sa'dullaevna	
Mintaqani barqaror rivojlantirishda paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatini oshirish	1020
Ismailov Temur Pulatovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari samaradorligi: statistik ko'rsatkichlar va ekonometrik modellarning tahlili	1024
Sharipov R.S.	
Sanoat infratuzilmasining tarkibiy tuzilishi va tartibga solish mexanizmlari	1030
Rasulov Jamshid Karimovich	
To'qimachilik sanoati korxonalarida eksport salohiyatini rivojlantirishda boshqaruv jarayonlarini o'ziga hos xususiyatlari	1036
Salimjonova Zilolaxon Salimjon qizi	
Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi tomonidan so'ngi yillarda amalga oshirilgan ishlar moliyaviy tahlili	1040
Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining rivojlanishni boshqarish tizimini takomillashtirish	1045
Smetov Murat Inyatovich	
Sanoat investitsion salohiyatini amalga oshirish mexanizmining mahalliy va xorijiy tajribalarini qiyosiy tahlili	1050
Bayniyazova Malika Polatovna	
Korxonalarda raqamli marketing strategiyalarining shakllanishi va ularning bozor raqobatbardoshligiga ta'siri	1056
Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna	
Руководство страховыми операциями: стратегический подход	1062
Тулаев Дилшод Юсуфович	
Sanoatni rivojlantirishda innovatsion boshqarishni takomillashtirish strategiyasi	1068
Qalmuratov Baxtiyar Seytmuratovich	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli chakana xizmatlarni takomillashtirish yo'llari	1073
Axmedov G'ofurjon Gulomjonovich	
Maktab o'quv dasturlariga turizm va mehmondo'stlik tarmog'ini integratsiyalashning soha rivojidadagi ahamiyati	1078
Nilufar Raxmonova Yorqinovna	
Namangan viloyatidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari salohiyati	1083
Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o'g'li	



Инновационные подходы к обеспечению экологической и экономической устойчивости в области энергосбережения и эффективного управления водными ресурсами	1088
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич, Ешмирзаев Содикжон Еркинбой угли, Кохарова Далира Рустам кизи	
Kimyo sanoati korxonalarida investitsion loyihalarni boshqarish orqali raqobatbardoshlikni oshirish	1095
Sabirov Oybek Shavkatbekovich	
Зеленая экономика и устойчивое развитие: экономический взгляд.....	1100
Акбаралиева Сугдиёна Улугбек кизи, Ахмедиева А.Т.	
Raqamli iqtisodiyot orqali investitsiyalarni jalb qilish va O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari.....	1105
Norpo'latov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
Инновационные факторы развития аграрного производства региона.....	1109
Сирожиiddinov Икромиддин Кутбиддинович	
Анализ развития зеленой экономики в глобальном контексте и в Республике Узбекистан.....	1114
Хусаинов Равшан Рахимович	
Marketing jarayonlarida emotsional intellektning roli va uning neyromarketing strategiyalari samaradorligiga ta'siri	1120
Pulatova Nigoraxon Nurullaevna	
O'zbekiston hududlarida aholi bandligi tahlili (2020–2024-yillar).....	1124
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Barqaror qishloq xo'jaligida yashil logistika (Green Logistics) mexanizmlarini joriy etish.....	1128
Abdirashidov Temurbek Abdirashid o'g'li	
Innovatsion iqtisodiyotda karshering xizmatlarining nazariy asoslari.....	1134
Haydarov Jahongir Aktamovich	
Mintaqada mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar	1139
Jasur Berdiyev	
Turizm xizmatlari samaradorligini oshirish metodologiyasini rivojlantirish	1143
Toshev Nurbek Janon o'g'li	
Iqtisodiy barqarorlikka erishishda quyosh panellarining roli	1147
Qodirov Bahodirjon Tursunovich	
Milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasi: nazariy va amaliy jihatlar.....	1152
Qurbanova Muazzam Fazliddinovna, Egamkulov Aziz Abdurasulovich	
Surxondaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini ARIMA modeli orqali ekonometrik modellash tirish	1156
Jo'rayev Olim Albayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv mohiyatini aniqlashning ilmiy yondashuvlari.....	1163
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	
Asosiy vositalarni hisobga olish va ularni audit qilish masalalari: nazariy va amaliy yondashuvlar	1168
Diyorbek Mamarasulov Alijon o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV MOHIYATINI ANIQLASHNING ILMIY YONDASHUVLARI

Temirov Abdulaziz Alimjanovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

e-mail: abdulaziz38@mail.ru

ORCID id: 0000-0002-6482-3482

Annotatsiya: Tijorat korporativ boshqaruvning keng qamrovli ekanligi bois, uning mohiyatini ochib berishga oid turli talqinlar va qarashlar mavjuddir. Shu sababli ham banklarda korporativ boshqaruvning umumqabul qilingan yagona ta'rifi mavjud emas. Mazkur maqolada banklarda korporativ boshqaruvning mohiyati va mazmunini ochib berish uchun turli iqtisodchi olimlarning bu boradagi fikr-mulohazalari o'rganilgan hamda muallif tomonidan korporativ boshqaruv mohiyatini aniqlashga doir ilmiy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bank, bank boshqaruvi, aksiyador, manfaatdor shaxs, strategiya, tuzilma, tizim, tamoyil.

Abstract: Since corporate governance in banks is comprehensive, there are different interpretations and views on the disclosure of its essence. For this reason, there is no single generally accepted definition of corporate governance in banks. In order to reveal the essence and content of corporate governance in banks, this article examines the opinions of various economists on this issue, as well as presents the author's scientific proposals and recommendations on determining the essence of corporate governance.

Key words: bank, management, shareholder, stakeholder, strategy, structure, system, principle.

Аннотация: Поскольку банковское корпоративное управление носит всесторонний характер, существуют различные толкования и взгляды на раскрытие его сути. По этой причине не существует единого общепринятого определения банковского корпоративного управления. С целью раскрытия сущности и содержания банковского корпоративного управления в данной статье рассматриваются мнения различных экономистов по данному вопросу, а также представлены научные предложения и рекомендации автора по определению сущности корпоративного управления.

Ключевые слова: банк, правление банка, акционер, заинтересованное лицо, стратегия, структура, система, принцип.

KIRISH.

So'nggi paytlarda korporativ boshqaruv mavzusi ko'pchilikning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelmoqda. Tijorat banklari faoliyatida kechayotgan muhim institutsional o'zgarish sifatida korporativ boshqaruv tizimini shakllantirishni alohida ta'kidlash joiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "... korporativ boshqaruv tizimidagi prinsip va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, ishlab chiqarish, tashqi iqtisodiy va investisiya jarayonlariga zamonaviy xalqaro korporativ menejment standartlarini joriy etish jiddiy e'tiborni talab qiladi" [1]. Mazkur masalaning dolzarbligi, banklarda korporativ boshqaruvni tashkil etish jarayonida ayrim muammolarning mavjudligi va ularni hal qilishning ilmiy jihatdan asoslangan yo'llarini ishlab chiqarishning zarurati bilan belgilanadi.

Tijorat banklari iqtisodiyotda moliyaviy resurslarini qayta taqsimlashni amalga oshiruvchi muhim moliya-kredit institutlaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston-2030 strategiyasining «Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish» maqsadida banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy qilish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish vazifasi qo'yilgan. Tijorat banklari oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalardan asosiysi ham banklarning barqarorligini va kapitallashuv darajasini yanada oshirish, yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qabul qilingan xalqaro me'yorlar, mezon va standartlarga asoslangan holda, bank tizimini baholash ko'rsatkichlarining zamonaviy tizimini joriy etish belgilangan edi [2].



Tijorat banklari korporativ boshqaruvning samarali tizimini yaratgan holda, iqtisodiyotning real sektorida amaldagi aksiyadorlik jamiyatlari bilan bog'liq bo'lgan bir qator o'ziga xos muammolarni hal etish zaruriyati bilan to'qnash keladi. Xususan, mulkdor va menejer o'rtasidagi o'zaro munosabat tijorat banklarida sanoat va savdo sohasiga qaraganda ancha murakkab hisoblanadi. Bu boshqaruv organlari tomonidan qat'iy nazoratning o'rnatilganligi, ba'zi tijorat banklari tizimida davlat kapitali hajmining yuqoriligi, bank siri institutining mavjudligi natijasida yuzaga keladigan informasion nomutanosiblikning jiddiyligi bilan izohlanadi. Boshqa tomondan esa, nomoliyaviy tashkilotlar bilan taqqoslanganda, tijorat banklari moliyaviy vositachilik funksiyasini bajarish uchun o'z mablag'larining passivdagi ulushi nisbatan kam.

Korporativ boshqaruv tushunchasiga oid adabiyotlar tahlili o'rganilganda, unga turli tadqiqotlarda turlicha talqin berilganini ta'kidlash mumkin. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar talablariga mos ravishda shakllantirish kabi qator masalalarni ham ilmiy-uslubiy jihatdan, ham amaliy jihatdan o'rganish banklarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Banklarda korporativ boshqaruv hisobdorlik, shaffoflik, oshkoralik, ijtimoiy mas'uliyat, halollik (soflik) kabi jihatlarni hamda boshqaruv organlari, aksiyadorlar va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni ham o'ziga qamrab oladi. Korporativ boshqaruvning bunday keng qamrovliligi bois, uning yagona umumqabul qilingan atamasi mavjud emas.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid adabiyotlar tahlilini o'tkazish natijasida turli tadqiqotlarda banklarda korporativ boshqaruvning alohida jihatlari ko'rib o'tilgan. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv sohasida bir qator xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarda korporativ boshqaruv tushunchasi turlicha tavsiflanadi. Jumladan, banklardagi korporativ boshqaruv "bank faoliyatida qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayoni" deb qaraladigan nuqtai nazar mavjud. Rossiyalik tadqiqotchi A.Murychev tomonidan bank faoliyatida korporativ boshqaruv iqtisodiy kategoriyasi shakllantirilgan bo'lib, unda korporativ bank boshqaruvi mulkdorlar va yollanma boshqaruvchilar o'rtasidagi boshqaruv funksiyalarini taqsimotiga asoslangan innovasion qarorlarini ishlab chiqish va bankning strategik masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish, amalga oshirilishini monitoring qilish jarayoni hisoblanadi [3]. Ma'lumki, qaror qabul qilish jarayoni korporativ boshqaruvning muhim jihati bo'lib hisoblanadi, ammo u menejmentga tegishli, shuning uchun u korporativ munosabatlarning butun spektrini ifodalab bera olmaydi.

Iqtisodchi olim R.Kaspina banklarda korporativ boshqaruvni "uning qatnashchilari - boshqaruv, nazorat (boshqaruv kengashi va audit qo'mitasi) hamda foydalanuvchi funksiyalari (investorlar, kreditorlar va boshqa foydalanuvchilar) o'rtasidagi o'zaro aloqalar sifatida ko'radi" [4]. Uning fikricha, korporativ boshqaruv bankning aksiyadorlik (bozor) qiymatini yaratish va oshirish uchun korporativ faoliyatni boshqarish va nazorat qilishning ichki va tashqi mexanizmlaridan iborat.

O.Osipenko banklarda korporativ boshqaruvni "Qisqa (taktik) va uzoq muddatli (strategik) maqsadlarini tartibga soluvchi banklar (va ularning turli bo'linmalari) egalari va menejerlari o'rtasidagi munosabatlar majmui, deb hisoblaydi, chunki korporativ boshqaruv bankni u bilan bog'liq bo'lgan barcha faoliyati emas, balki boshqaruvining o'zidan boshqa narsa emas deb ta'kidlaydi" [5].

Boshqa iqtisodchi olim K.Yushko korporativ boshqaruvni bankning manfaatdor tomonlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi sifatida ko'rib chiqadi. Uning fikricha, korporativ boshqaruv "qoidalarni belgilovchi va bank aksiyadorlari, uning menejerlari, ishchilari va tashkilot faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa shaxslar guruhlar o'rtasidagi munosabatlar mexanizmini belgilovchi boshqaruv tizimidir" [6].

Tijorat banklarida korporativ boshqaruv masalalari yuzasidan o'zbekistonlik olimlar ham o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Xususan, O.Ortiqov va I.Qulliyevlar fikricha "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv aksionerlik mulkchilik shakli asosida banklar faoliyatini taktik va strategik boshqarish tizimidir" [7]. S.Qudratov fikricha, "mamlakat iqtisodiyotini yangilash va modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining resurslarini shakllantirish hamda ularni samarali boshqarish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlaydi" [8].

Ko'pchilik iqtisodchi olimlar korporativ boshqaruvni bankning manfaatdor tomonlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi sifatida ko'rib chiqadi. Ularning fikricha, korporativ boshqaruv qoidalarni belgilovchi va bank aksiyadorlari, uning boshqaruvi, xodimlari va bank faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan boshqa shaxslar guruhlar o'rtasidagi munosabatlar mexanizmini belgilovchi boshqaruv tizimidir deya talqin qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni tashkil etish va tizimlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, ta'rif va tushunchalarning shakllanishini qiyosiy solishtirish, ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez usullaridan keng foydalanilgan.




TAHLILI VA NATIJALAR

Mavzuga oid adabiyotlar tahlilini o'tkazish natijasida turli tadqiqotlarda korporativ boshqaruvning alohida jihatlari ko'rib o'tilgan. Xususan, Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining "Banklar uchun korporativ boshqaruv prinsiplari" (Corporate governance principles for banks) hujjatida korporativ boshqaruv "Kompaniyaning vazifalarini aniqlash va ularga erishishni nazorat qilish mexanizmi sifatida uning yuqori rahbariyati, uning kuzatuv kengashi, egalari va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlar tizimi" sifatida talqin etiladi. Bunday tizim vakolat va javobgarlikni taqsimlashni tashkil etish, shuningdek, korporativ qarorlar qabul qilish jarayonini tashkil etish imkonini beradi" [9].

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) korporativ boshqaruvga oddiygina qilib "kompaniyalar boshqariladigan va nazorat qilinadigan tizim" sifatida ta'rif beradi [10]. OECD ning korporativ boshqaruv tamoyillariga muvofiq, yangi tajribalar egallangan hamda biznes sharoitlari o'zgargan paytda korporativ boshqaruv tizimining turli qoidalari qayta ko'rib chiqilishi va zarur hollarda, ularga tuzatishlar kiritilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, korporativ boshqaruv bo'yicha mavjud qarashlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Boshqaruv va nazorat tizimi (yoki modeli).
 2. Manfaatlari balansi (muvozanati)ni ushlab turish mexanizmi.
 3. Mulk egalari (aksiyadorlar, investorlar) ning manfaatlarini himoya qilish mexanizmi.
 4. Qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayoni.
 5. Kompaniyalarning manfaatdor tomonlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi.
- Korporativ boshqaruv bo'yicha mavjud qarashlarni guruhlash esa quyidagi rasmda keltirilgan.



1-rasm. Korporativ boshqaruv bo'yicha mavjud qarashlarni guruhlash*

*Manba. Ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Fikrimizcha, banklarda korporativ boshqaruv ta'rifini "Bankning manfaatdor tomonlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimidir" degan to'xtamga kelish to'g'ri bo'ladi. Chunki korporativ boshqaruv tushunchasi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham aniq va deyarli har tomonlama ochib berilgan deb hisoblash mumkin va u quyidagicha tavsiflangan: "...boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish imkonini ta'minlovchi, bank boshqaruv organlari va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlar majmui, shu jumladan, boshqaruv organlarining vakolatlarini va javobgarligini taqsimlash hamda boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish imkonini yaratish tushuniladi" [11]. Ushbu ta'rif bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining "Banklar uchun korporativ boshqaruv tamoyillari" (Corporate governance principles for banks) hujjatida korporativ boshqaruvga berilgan tushuncha bilan to'g'ri keladi.

Biroq, fikrimizcha, banklarda korporativ boshqaruv ta'rifini alohida jihatlari bilan to'ldirish maqsadga muvofiq bo'lar edi va ularni quyidagicha keltirish mumkin:



- korporativ munosabatlarning eng muhim sub'yektlaridan biri sifatida davlatni (yoki keng ma'noda davlat organlarini) ajratib ko'rsatish;
- manfaatdor tomonlarning manfaatlari tushunchasini korporativ boshqaruvni shakllantirish va faoliyat ko'rsatishining asosiy omili sifatida kengroq yoritishish;
- korporativ munosabatlarning eng muhim mexanizmlari sifatida funksiyalar va tashkiliy tuzilmaning tushunchasiga to'ldirishlar kiritish;

- axborotlarning tashkiliy oqimi ta'rifni sub'yektlar (manfaatdor shaxslar) tomonidan korporativ munosabatlarni amalga oshirishda o'z funksiyalarini bajarishda, shu jumladan korporativ munosabatlarning eng muhim mexanizmlaridan biri sifatidagi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda axborot bazasi sifatida to'ldirish.

Korporativ boshqaruv kompleks tushunchadir, shuning uchun uni tizim sifatida ko'rib chiqish kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda bankning korporativ boshqaruv tizimi atamasi mavjud emas. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi bank faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham bankning korporativ boshqaruvida "ichki nazorat tizimi", "risklarni boshqarish tizimi" va "mukofotlash tizimi" kabi elementlarga aniqlik kiritilgan.

Korporativ boshqaruvning tarkibiy qismlari tizimlar sifatida tan olinishi bankning korporativ boshqaruv tizimini tan olinishiga olib kelishi asoslab berilgan. Uning quyidagi ta'rifi taklif etiladi: "Bankning korporativ boshqaruv tizimi davlat, aksiyadorlar, boshqaruv organlari, bank xodimlari va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida manfaatlar, funksiyalar, tuzilgan axborot oqimlari, bankning mavjud institusional muhitidagi tashkiliy tuzilma o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan munosabatlar to'plami bo'lib hisoblanadi". Bankning institusional muhiti o'z ichiga bankning strategik va operasion maqsadlariga erishish, shuningdek, bank vazifalarini bajarishni aniqlab berish tartibi va jarayonlarini belgilaydigan strategiya, korporativ boshqaruv va boshqa mahalliy normativ-huquqiy hujjatlarni oladi.

Fikrimizcha, bankning korporativ boshqaruv tizimining ta'rifi davlatni manfaatdor tomonlardan biri sifatida o'z ichiga olishi kerak. Shu bilan birga, davlat deganda nafaqat O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankini, balki bankning ishlashiga ta'sir qiluvchi boshqa davlat organlarini ham nazarda tutishni taklif qiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklarida korporativ boshqaruv vazifalarini "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida nizom"da belgilab bergan.

Boshqa davlat organlari o'z vazifalari va funksiyalarini bajarish doirasida bank faoliyatiga o'z manfaatlarini hisobga olgan holda, xususan uning korporativ boshqaruviga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi bank tomonidan soliqlarni to'lash va byudjetni to'ldirishdan, O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bank xodimlarini ish bilan ta'minlashdan, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi esa kredit bozorida banklar sonining ko'pligidan manfaatdor va hokazo. Umuman olganda, davlat bank faoliyatidagi manfaatdor shaxs bo'ladi, shuning uchun ham u korporativ boshqaruvi munosabatlarning sub'yekti hisoblanadi.

Kengaytirilgan ta'rifga muvofiq, davlatni korporativ munosabatlarning eng muhim sub'yektlaridan biri sifatida joriy etish orqali korporativ boshqaruv tizimi bankning qanday qilib qo'shimcha qiymat yaratishini va uni manfaatdor tomonlar o'rtasida taqsimlanishini o'z ichiga oladi. Bunday holda, bankning korporativ boshqaruvi o'z ichiga korporativ ijtimoiy ma'suliyatni ham oladi.

Fikrimizcha, banklarda korporativ boshqaruvni shakllantirish va faoliyat ko'rsatishining fundamental asosini manfaatdor shaxslar manfaatlarida deb hisoblash mumkin. Manfaatdor shaxslarning manfaatlaridan kelib chiqib, tizimni tashkil etuvchi korporativ munosabatlar shakllanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, funksiya kabi kategoriyaga alohida e'tibor berilishi kerak, chunki funksiya korporativ boshqaruvning asosiy elementidir. Bankning korporativ boshqaruv tizimida korporativ munosabatlar manfaatdor tomonlarining funksiyalari o'z faoliyati doirasida amalga oshiriladigan va bankni boshqarish mexanizmlari funksiyalariga bo'linadi. Ushbu funksiyalarni mos ravishda "shaxslar funksiyalari" va "mexanizmlar funksiyalari" deb belgilash taklif etiladi. Buning sabablarini shunday ifodalash mumkin:

1. Funksiyalar manfaatdor shaxslarning irodasi ko'rsatkichidir. Manfaatdor shaxslar o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda, o'z funksiyalarini shakllantiradilar va amalga oshiradilar. Shu bilan birga, manfaatdor shaxslar o'z funksiyalarini bajarish davomida mavjudlarini o'zgartiradilar, yangilaydilar, shuningdek yangi manfaatlarini shakllantiradilar. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, aytib o'tilgan "shaxslar funksiyalari", bankning korporativ boshqaruv tizimi kontekstida yuqori darajadagi funksiyalar bo'lib hisoblanadi. "Shaxslar funksiyalari" bevosita bankning tashqi va ichki muhitiga ta'sir qiladi.

2. Bank faoliyatini joriy boshqarish vositasi, shuningdek, asosiy maqsadlardan biri bo'lgan manfaatdor tomonlarning manfaatlar balansni shakllantirish va birlashtirish orqali amalga oshiriladigan korporativ munosabatlarning "mexanizmlar funksiyalari" alohida ahamiyatga ega. Bunda mexanizmlar, birinchi navbatda, bankning tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv va nazorat jarayonlari, qaror qabul qilish jarayonlari, biznes-bank jarayonlari, boshqaruv organlari va bank xodimlarining vakolatlaridan tashkil topadi. "Mexanizmlar funksiyalari"ni bankning korporativ boshqaruvi kontekstidagi o'rnini past darajali deb atash mumkin. "Mexanizmlar funksiyalari"



faqatgina bankning ichki muhitigagina ta'sir qiladi.

3. "Shaxslar funksiyalari" bankning ichidan rivojlantirilishi, ya'ni "mexanizmlarning funksiyalari" uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, manfaatdor tomonlar, ya'ni korporativ munosabatlar sub'yektlari funksiyalaridan kelib chiqqan holda korporativ boshqaruvning mexanizmlaridan biri bo'lgan bankning tashkiliy tuzilmasi shakllantiriladi. "Shaxslar funksiyalari" bankning faoliyatidagi "mexanizm funksiyalari" bilan tashkillashtirilgan biznes jarayonlari asosiga qurilgan.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, bankning korporativ boshqaruv tizimini aniqlashda "funksiya" kategoriyasini kiritishni asosli deb hisoblaymiz. Korporativ munosabatlarning barcha manfaatdor tomonlariga axborotlar zarurdir. Tegishli ma'lumotlar asosida va ularni hisobga olgan holda, korporativ munosabatlar sub'yektlari o'z manfaatlarini shakllantiradilar, o'z vazifalarini bajaradilar. Shunday qilib, shakllantirilgan axborot oqimlari korporativ munosabatlarning "qon tomirlari" bo'lib hisoblanadi va ular bankning korporativ boshqaruvini aniqlashda aks ettirilishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. O'rganishlardan kelib chiqqan holda ta'kidlash joizki, hozirgi kunda banklarda korporativ boshqaruvning mohiyatini ochib berishda yagona yondashuv mavjud emas.

2. Korporativ boshqaruv menejmentdan farqli o'laroq, bankning ichki va tashqi muhitiga ta'sir qiladi.

3. Tijorat banklarida korporativ boshqaruv mohiyatini aniqlash bo'yicha mavjud bo'lgan barcha nuqtai nazarlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- boshqaruv va nazorat tizimi (yoki modeli);
- manfaatlar balansi (muvozanati)ni saqlash mexanizmi;
- mulkdorlar (aksiyadorlar, investorlar) manfaatlarini himoya qilish mexanizmi;
- qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayoni;
- bankning manfaatdor tomonlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi.

Xulosa qilib aytganda, banklarda korporativ boshqaruv uning manfaatdor tomonlari o'rtasidagi munosabatlar to'plami bo'lib, manfaatdor shaxslar o'z funksiyalarini bajarishi, mavjudlarini o'zgartirishi va yangilashlari, shuningdek yangi manfaatlarini shakllantirish borasidagi qarorlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28.12.2018 й. // Халқ сўзи, 29.12.2018.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон-2030 стратегияси тўғрисида» ПФ-158-сон Фармони, 11.09.2023 й.
3. Мурычев А. Состояние и совершенствование корпоративного банковского управления в России. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. М., 2007. -38 с.
4. Каспина, Р. Г. Влияние на формирование бухгалтерской отчетности механизмов корпоративного управления // Финансы и кредит. – 2014. – № 7 (145). – С. 50–55.
5. Осипенко, О. В. Формирование институтов корпоративной сферы: российский опыт // Российский экономический журнал. – 2014. – № 1. – С. 52–58.
6. Юшко, К. Ю. На пути к корпоративному управлению // Вестник БГУ. 2024. – № 1. – С. 40–43.
7. О.Ортиқов, И.Қуллиев. Банк менежменти ва маркетинги". Ўқув қўлланма. -Т.:ТМИ, 2015-157 б.
8. Принципы корпоративного управления для банков (июль 2015). Базельский комитет по банковскому надзору. https://www.cbr.ru/Content/Document/File/3_6687/Basel_cgpb.pdf
9. Совершенствование корпоративного управления в кредитных организациях/ Базельский комитет по банковскому надзору. Базель, сентябрь 1999 г.
10. Тижорат банкларида корпоратив бошқарув тўғрисида низом. 30.06.2020. № 3254



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
